

ODILOV BOBIR
AXMADJON O'G'LI

"Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va
etnologiyasi" kafedrası dotsenti
Ахилобод МФЙ, 13 мавзеси, 71-
уй, 69-хонадон

Profilni tahrirlash

Chiqish

Telegram

Instagram

Facebook

Mening loyihalarim

Shaxsiy ma'lumotlar

Mening loyiha mavzularim

#1

Tur

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan fundamental hamda amaliy loyihalar asosida bajariladigan amaliy tadqiqot hamda innovatsion loyihalar tanlovi

Loyiha mavzusi

Kulolchilik va pichoqchilik san'atini 3D virtual muzeyi: innovasion ta'lim va madaniy merosni raqamli saqlash imkoniyatini yaratish

So'ralgan mablag' (BHM)

2,975

Loyiha shifri: IL-9224094083-R4

Status: Vazirlik kengashi tomonidan loyihani moliyalashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi

Dastlabki texnik ekspertiza

Ilmiy ekspertiza

Ilmiy-texnik kengash

Moliyaviy-iqtisodiy ekspertiza

vazirlik Kengashi

IL-9224094083-R4

Tasdiqlash

Rad qilish

Kelishuvchilar ro'yxat

IL-9224094083-R4

Tasdiqlash

Rad qilish

Kelishuvchilar ro'yxat

Ilmiy boshqarma

Yuridik bo'lim

Buxgalteriya

Jamg'arma

Jamg'arma xodimi

Jamg'arma direktori o'rinbosari

Jamg'arma yuristi

Loyiha rahbari

ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA ILMIY LOYIHANI BAJARISH TO'G'RISIDA SHARTNOMA
IL-9224094083-son

16-iyun, 2025 y. Toshkent shahri

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (keyingi o'rinlarda — Buyurtmachi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor RAJABBAYEV SHAROF RAXIMBERDIYEVICH bir tomondan, loyiha rahbari ODILOV BOBIR AXMADJON O'G'LI ikkinchi tomondan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o'rinlarda – Ijrochi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi RIXSIYEVA GULCHEHRA SHOYKATOVNA uchunchi tomondan, ILM-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Moliyalashtiruvchi) nomidan nizom asosida ish yurituvchi Ijro etuvchi direktor v.v.b. TAVAKALOV JONIBEK TAVAKALOVICH to'rtinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ILM-fan va innovatsiyalar kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash)ning 2025-yil 15-apreldagi 5-son bayoni hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 28-apreldagi 151-son buyrug'iga muvofiq taraffar o'rtasida mazkur shartnoma tuzildi.

I. Shartnoma predmeti

1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari Buyurtmachining topshirig'iga binoan mazkur shartnomada belgilangan "Kulolchilik va pichoqchilik san'atini 3D virtual muzeyi: innovasion ta'lim va madaniy merosni raqamli saqlash imkoniyatini yaratish" mavzuli innovatsion loyihani bajarish va uning natijasini Buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish, Moliyalashtiruvchi esa moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishlar va ularni bajarish muddatlari hamda bajarilgan ishlar bo'yicha taqdim etiladigan hisobot shakllari ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan kalendar rejaga asosan belgilanadi.

II. Shartnomaning moliyaviy hajmi va moliyalashtirish tartibi

3. Moliyalashtiruvchi tomondan loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi 897 791 000 (sakkkiz yuz to'qson yetti million yetti yuz to'qson bir ming) so'mni tashkil etadi. Shundan 1-yilda bajariladigan ishlar uchun 897 791 000 (sakkkiz yuz to'qson yetti million yetti yuz to'qson bir ming) so'm moliyalashtiriladi. Loyihani moliyalashtirish mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4. Moliyalashtiruvchi tomondan loyihaning tadqiqot davri mobaynida loyihani amalga oshirishda mehnatga haq to'lash va boshqa xarajatlar uchun loyihaga ajratiladigan har yillik mablag'ning 95 foizi moliyalashtiriladi.

Bunda, chegirib qolinadigan 5 foiz mablag' loyiha doirasida ish haqi va ijtimoiy soliq hamda boshqa xarajatlari uchun ajratilgan jami mablag'larning nisbatiga mutanosib ravishda ushlab qolinadi. Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlardan ushlab qolinadigan mablag'lar qoida tariqasida loyihaning tasdiqlangan har yilgi xarajatlar smetasining oxirgi oyidan cheginiladi.

5. Moliyalashtiruvchi tomondan loyihaga ajratiladigan mablag'ning chegirib qolingani 5 foizini moliyalashtirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

Ijrochi tomondan loyiha bo'yicha oraliq/yakuniy ilmiy hisobotlar shartnomaning kalendar rejasida belgilangan hisobot o'ynining 15 sanasiga qadar Buyurtmachiga taqdim etilgan taqdirda, Buyurtmachining ko'rsatmasiga asosan chegirib qolingani mehnatga haq to'lash va ijtimoiy soliq xarajatlari moliyalashtiriladi;